UDK: 633.31:631.52(575.1)

MOSH NAVLARINING XO‘JALIK QIMMATLI BELGILARINI TAHLIL QILISH

Asamatdinov Qalila
Qoraqalpog‘iston qishloq xojaligi va agrotexnologiylar instituti, tadqiqotchi
E-mail: asamatdinovqaliyla@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada moshning mahalliy navlaridagi qimmatli xo‘jalik belgilari Qoraqalpog‘iston sharoitida o‘z-aro solishtirib o‘rganildi. Beshta mosh navlarida 1000 urug‘ vazni, bir dukkakdagi urug‘lar soni, bitta tupdagi don mahsuldorligi, hosildorlik va vegetatsiya davri aniqlandi. Olingan na‘tijalar amaliy seleksiya va genetik tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье проведено сравнительное изучение ценных агрономических признаков местных сортов маша в условиях Каракалпакстана. Для пяти сортов маша были определены масса 1000 семян, количество семян в бобе, урожайность зерна с одного растения, общая урожайность и продолжительность вегетационного периода. Полученные результаты служат основой для практической селекции и генетических исследований.

Annotation: In this article, valuable agronomic traits of local mungbean cultivars were comparatively studied under the conditions of Karakalpakstan. For five mungbean varieties, the 1000-seed weight, number of seeds per pod, grain yield per plant, overall yield, and growing season duration were determined. The obtained results serve as a basis for practical breeding and genetic research.

Kalit so‘zlar: Vigna Radiata, nav, mosh, , hosildorlik, Qoraqalpog‘iston, mahsuldorlik, namuna

Ключевые слова: Vigna radiata, сорт, маш, урожайность, Каракалпакстан, продуктивность, образец

Key words: Vigna radiata, variety, mungbean, yield, Karakalpakstan, productivity, sample

KIRISH

Salqin va quruq ob-havo sharoitida yetishtiriladigan asosiy oziq-ovqat va sanoat ekini mosh hisoblanadi. Orta Osiyo mintaqasida vegetatsiya davri va yuqori hosildorlik dehqonchilikni optimallashtirishda muhim omil sanaladi. Avvalgi ta‘jiribalarda mosh navlari o‘rtasidagi don soni, don og‘irligi va hosildorlik ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchanligi aniqlangan. Tadqiqotning maqsadi-Qoraqalpog‘iston sharoitida moshning mahalliy navlaridagi bir qator qimmatli xo‘jalik belgilarini (bir dukkakdagi urug‘ soni, 1000 urug‘ vazni, tup mahsuldorligi, hosildorlik va vegetatsiya davri) tahlil qilish va eng istiqbolli navlarni ajiratib olishdan iborat.

N İbragimov va N Nurmetovlarning [3.20-22]. tadqiqotlariga qaraganda, kuzgi bug‘doy keyin takroriy ekin sifatida moshni ekilishi bir yilda 2-3 marta hosil olish imkoniyatini berib, kuzgi bug‘doydan 6-7 t/ga, moshdan bolsa 1,5-2,0 t/ga don yetishtirilib, bir mavsumda hosilni 7,5-9,0 t/ga yetkazish imkoniyati mavjud. Natijada 1 ga maydondan 100 % samaralifoydalanib va mahsulot tannarxini 30-40 % ga oshirish mumkin. Rentabellik darajasi 20-25% ga ko‘tarilib hamda

© 2026 Worldly Knowledge.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

mahsulotning tannarxi 15-20 % ga kamayadi. Bu esa Respublikamizda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarning tuproqlari unumdorligini yaqshilanishini ta‘minlab, aholining oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlanadi.

X.A İdrisovning [2.158-160]. Ilimiy ichlarida keltirilishisha moshning ekish uchun qoyiladigan asosiy talablardan biri yuqori oqsilli tarkibga va góshtni almashtirish potentcialiga ega navlarni ekishdir.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston qishloq xojaligi va agrotexnologiylar instituti tajiriba maydonida o'tkazildi. Dala tajribalari B. A. Dospexovning "Metodika polevogo opita" (1985) uslublari asosida olib borildi. Har bir nav uch qaytariqta 60x15x1 sxemasida ekildi va randomizatsiyalangan bloklar usulida joylashtirildi.

Tajriba davomida quyidagi qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha kuzatuv va o‘lchov ishlari olib borildi:

bitta dukkakdagi donlar soni
1000 dona don vazni (g),
hosildorlik (ts/ga),
bir tupdagi don mahsuldorligi (g),
vegetatsiya davri (kun).

O‘lchovlar vegetatsiya davrida va hosil yig‘ib olinganidan keyin tajiriba dalasida Qoraqalpog‘iston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti “Dehqonchilik, qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi” kafedrasi laboratoriya xonasida amalga oshirildi. Statistik tahlillar Mal-Viva dasturi orqali baholandi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mosh navlarning qimmatli xo‘jalik belgilarida sezilarli farqlar aniqlandi. Bitta dukkakdagi don soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Durdona va Osiyo navlarida (har ikkalasi 11.6 ± 0.84 dona) aniqlandi, minimal qiymat esa Ishonch navida (10.5 ± 2.35 dona) qayd etildi.

1000 dona don og‘irligi bo‘yicha esa Zilola navida yaqshi natija qayd etilib, 65.38 ± 3.04 g tashkil qildi, bu donning yirikligidan dalolat beradi. Eng past ko‘rsatkich esa Ishonch (51.12 ± 3.19 g) to‘g‘ri keldi.

Bir tupdagi don mahsuldorlik bo‘yicha Zilola (7.32 ± 1.40 g) va Baraka (7.28 ± 1.56 g) navlari yuqori ko‘rsatkishlarni qayd etgan, bu navning bir tupdan olinadigan umumiy vaznning yuqoriligini bildiradi. Ichonch namunasi eng past mahsuldorlik (5.47 ± 1.97 g) ko‘rsatkichini berdi (VK = 43.42%), bu navning barqaror emasligini anglatadi.

Eng yuqori hosildorlik ham Zilola navida (16.17 ± 1.11 ts/ga) aniqlangan bo‘lsa, undan keyingi o‘rinda Baraka (15.18±1.93 ts/ga) turdi. Ishonch navi esa bu borada eng past (12.36±0.56 ts/ga) hosildorlikni namoyon etdi.

Vegetatsiya davri bo‘yicha Osiyo va Durdona navlari qisqa muddatlarda (78.0 kun), Baraka navi esa eng uzun (89.5±1.92 kun) aniqlandi, bu navning kechpisharligi bilan ajralib turishini bildiradi (1-jadval).

1-jadval

Mosh navlarining qimmatli xo‘jalik belgilari ko‘rsatkichlari

№	Navlar va liniyalar	Urug‘ soni	1000 urug‘ vazni (g)	Mahsuldorlik tupda (g)	Hosildorlik (ts/ga)	Vegetatsiya davri (kun)

https://e-conference.uz/index.php/tabiiy © 2026 Worldly Knowledge.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1	Durdona st.	11.6±0.84	54.56±2.57	6.12±1.37	14.28±2.81	78.0±4.30
2	Zilola	11.2±1.00	65.38±3.04	7.32±1.40	16.17±1.11	86.8±2.30
3	Osiyo 1677	11.6±0.84	58.34±0.68	6.34±1.88	13.67±0.74	78.0±1.58
4	Ishonch 1680	10.5±2.35	51.12±3.19	5.47±1.97	12.36±0.56	82.5±2.30
5	Baraka	10.9±0.84	58.42±1.36	7.28±1.56	15.18±1.93	89.5±1.92

XULOSA

Zilola navining qimmatli xo‘jalik belgilar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkishlar qayd etganligi aniqlanib, seleksiya amaliyotlarida qo‘llash tavsiya etiladi. Durdona va Osiyo navlari esa qisqa vegetatsiya davriga ega bo‘lgn ushun quruq sharoitlarda ekishga foydali hisoblanadi. Baraka navlari esa sug‘orliadigan dala maydonlariga ekish uchun mos hisoblanadi. Bu navlarni amaliy seleksiya tadqiqotlarida boshlang‘ich ashyo sipatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita.-M.: Kolos, 1985.-S. 317.
2. İdrisov X.A. “Dukkakli ekinlar; soya va moshning tuproq unumdorligini oshirishdagi ahamiyati” .- Farg‘ona: “ Qo‘llanma”. -2022. -B. 158-160.
3. Ibragimov M., Nurmetov A. Growing mosh as a secondary crop // The development of the country in the eyes of young people. II Scientific-Practical Conference of Gifted Students and Masters for 2018 - the Year of Active Entrepreneurship, Support of Innovative Ideas and Technologies.-Toshkent,2018.-B. 20-22. http://dx.doi.org/10.3390/genes11070759

© 2026 Worldly Knowledge.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.